

## ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN TALON-TOROJNING JINOYAT-HUQUQIY JIHLTLARI

Bahodirov Domullojon Baxtiyorzoda

M.S.Vosiqova nomidagi yuridik litsey "Huquqiy fanlar" kafedrası bosh o'qituvchisi

Telefon: +998(90)837-71-70

bakhodirovdadakhon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18548911>

**Annotatsiya:** Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, davlatning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib, xususiy mulkka ega bo'lish ham boshqa shaxsiy huquqlar singari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin so'nggi vaqtlarda, o'zga shaxsning mulkiga nisbatan o'zboshimchalik bilan, zo'rlik ishlatib tajovuz qilish holatlari ko'payib bormoqda. Shu munosabat bilan zo'rlik ishlatib sodir etiladigan, talon-toroj jinoyatlarni jinoiy-huquqiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish va xorijiy va milliy tajriba asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda va quyida uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida umumiy yondashuvlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** talon-toroj, zo'rlik, hujum qilish, ruhiy va jismoniy zo'rlik, bosqinchilik, talonchilik

**Asosiy qism.** Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-bobi jamiyatning iqtisodiy negizlariga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Shu asoslarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi va mol-mulk har qanday jinoiy tajovuzlardan himoya qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasiga asosan, mulk mazkur kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlar toifasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida o'zgarar mol-mulkin talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi Jinoyat kodeksining X bobi bilan tartibga solingan va **bosqinchilik, talonchilik, tovlamachilik, o'zlashtriish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik va o'g'irlik** uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Professor M.X.Rustamboyevning fikricha, talon-toroj qilish-o'zganing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga xilof tarzda va haq to'lamay olib qo'yishdir. Demak shaxs tomonidan sodir etiladigan talon-toroj jinoyatlarining o'ziga xos xususiyatlari quydagilarda namoyon bo'ladi:

- talon-toroj qilish o'zganing mulkini o'zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun amalga oshirilishi lozim;
- mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib sodir etilishi lozim;
- qonunga xilof tarzda va haq to'lamay olib qo'yishda ifodalanishi lozim.

Talon-toroj bilan bog'liq jinoyatlarning barchasida bevosita asosiy obyekt o'zganing mulki hisoblanadi va subyektiv tomondan qasddan sodir etiladi. Bavoosita yuqorida ko'rsatib o'tilgan talon-toroj jinoyatlarining asosiy farqlovchi belgisi uning obyektiv tomoni, ya'ni sodir etish usuli bilan bog'liq. Masalan, shartli ravishda ko'rsatib o'tilgan talon-toroj shakllarini ikki guruhga bo'lish mumkin: **zo'rlik ishlatish va zo'rlik ishlatmasdan**. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan talon-toroj jinoyatlari quydagilarni o'z ichiga oladi: *bosqinchilik hamda talonchilik*.

Obyektiv tomondan bosqinchilik va talonchilik o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida shu mulkning egallanishiga qarshilik ko'rsatgan shaxs zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatishda ifodalanadi.

Dastavval, bosqinchilik jinoyatining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, to'g'ridan-to'g'ri jinoyatning bevosita obyektini aniqlashda, baz'i bir bahsli holatlar mavjud. Masalan, S.M.Kochoinning fikricha, bosqinchilik jinoyatining bevosita obyektini bu – o'zga shaxsning mulkiy huquqlari hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu bir qarashda asosiy obyekt sifatida qaralsa ham, fuqarolik qonunchiligi bo'yicha mulk-huquqining yuzaga kelish asoslari, Fuqarolik kodeksi 164-moddasiga asosan, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishdan<sup>2</sup> iborat. Shu joyida haqli savol tug'iladi, agar mol-mulk boshqa shaxsga vaqtincha foydalish uchun berilganda, uni egallab olish uchun bosqinchilik harakatlari amalga oshirilish jarayonida, mulk huquqi mavjud bo'lmagan shaxsning hayoti va sog'lig'i uchun zarar yetkazilsa qilmish qanday tasniflanishi lozim? Bu borada M.X.Rustamboyev aynan bosqinchilikning bevosita obyektini sifatida o'zganing mol-mulkini muhofaza qilishni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar<sup>3</sup> buzilishini ta'kidlab o'tgan. Bizning fikrimizcha ham bosqinchilikda bevosita obyekt sifatida faqatgina mulk huquqi emas, balki mol-mulkni ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkaziladi. Bosqinchilik natijasida nafaqat mulkni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarga, balki fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar ham zarar yetkaziladi<sup>4</sup> va qilmishning bevosita qo'shimcha obyekt hisoblandi.

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan o'zgarlar mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning navbatdagisi bu talonchilik hisoblanadi. Talonchilikning bevosita obyektini o'zganing mol-mulkini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar va shu mulkka bo'lgan mulk huquqi hisoblanadi, ya'ni bosqinchilikka o'xshash holatdagi obyektlar ham bevosita asosiy, ham bevosita qo'shimcha obyektlar hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikkala jinoyat subyektlari ham Jinoyat kodeksi 17-moddasiga ko'ra o'n to'rt yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Subyektiv tomondan bosqinchilik va talonchilik jinoyatlarini sodir etgan shaxslar o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan holatda, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetib va ularning yuz berishini istagan holatda to'g'ri qasddan harakat qiladi.

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan talon-toroj jinoyatlarining eng asosiy farqlovchi belgisi u qilmishning obyektiv tomonida namoyon bo'ladi. Amaldagi Jinoyat Kodeksining 164-moddasi va 166-moddasi 2-qismi asoslariga binoan, bosqinchilik, o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilsa, talonchilik, ya'ni o'zganing mulkni ochiqdan-ochiq talon-toroj qilishda namoyon bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, talonchilik har doim ham zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilmaydi. Faqatgini JK 166-moddasi 2-qismi "a" bandida nazarda tutilgan holat, ya'ni hayot va sog'liq uchun xavfli

<sup>1</sup> Кочои С.М. Ответственность за корыстные преступления против собственности. - М.: АНТЭЙ, 2000. – 286 с.

<sup>2</sup> Кочои С.М. Ответственность за корыстные преступления против собственности. - М.: АНТЭЙ, 2000. – 286 с.

<sup>3</sup> М.Х. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent

<sup>4</sup> Сон Э.В. Об объекте преступного посягательства при совершении разбоя//Балтийский гуманитарный журнал. - 2019. - Т. 8. - № 1 (26). – С. 355 - 359.

bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilgan talonchilik bevosita e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan asosiy jihat hisoblanadi.

Demak, ko'rsatib o'tilgan jinoyatlarning o'xshash va faqrli jihatlarini tahlil etishga kirishamiz. Birinchidan, eng asosiy farqlovchi xususiyat bevosita ishlatiladigan zo'rlik masalasi bilan bog'liq. Ya'nikim, bosqinchilik hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etilsa, talonchilik sog'liq yoki hayot uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan sodir etiladi. Hayot uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroriga ko'ra, "uning ishlatilishi jabrlanuvchining hayoti uchun aniq bo'lgan xavfni vujudga keltiruvchi holat (masalan, jabrlanuvchini bo'g'ish, boshini suv ostida ushlab turish va h.k.) tushuniladi. Sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish deganda, jabrlanuvchiga sog'lig'ining buzilishiga sabab bo'lgan tan jarohati yetkazish yoki shunday tan jarohatini yetkazish xavfini tug'diruvchi harakatlar (chakkaga, quyosh chigaliga urish va h.k.)" tushuniladi.<sup>5</sup> Lekin shuni hsiobga olish kerakki, JK 164-moddasi dispozitsiyasi odam o'limi bilan bog'liq moddiy oqibatlarni qamrab olmaydi, ya'ni hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatilishi natijasida odam o'limi kelib chiqsa, tegishli ravishda bosqinchilik va odam o'ldirish tarzida jinoyatlar majmuyi deb malakalanadi. Badanga yetkaziladigan shikastlarning har qaysisi JK 164-moddasi birinchi hamda uchunchi qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. OSPQga ko'ra, "Jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish deganda, badanga yengil shikast yetkazish tushunilishi lozim. Bunday zo'rlik jabrlanuvchiga jismoniy azob beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qo'yuvchi harakatlarda ifodalanishi mumkin"<sup>6</sup>. Misol uchun, zo'rlik ishlatib xonaga qamab, bog'lab qo'yish va hokazo. Bosqinchilik ham, talonchilik ham nafaqat zo'rlik ishlatib, balki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib ham sodir etiladi. Qo'rqitish bu-jabrlanuvchini mol-mulkni berishga yoki uning talon-toroj qilinishiga to'sqinlik qilmaslikka majbur qilish maqsadida unga ruhiy ta'sir ko'rsatish<sup>7</sup>. Demak ikkala holatda ham maqsadga erishish usuli sifatida baholanishi lozim.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. M.X. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent
4. Muhammadjon USMONALIEV. JINOYAT HUQUQI (Umumiy qism). Toshkent-2010 Yangi asr avlodi 168.
5. Rasulov O.X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiy qism. T: «O'qituvchi» 1969
6. Кочой С.М. Ответственность за корыстные преступления против собственности. - М.: АНТЭЙ, 2000.
7. Сон Э.В. Об объекте преступного посягательства при совершении разбоя//Балтийский гуманитарный журнал. - 2019.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O'zgarlar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish^jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli qarori

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi «O'zgarlar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish^jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 6-sonli qarori

<sup>7</sup> M.X. Rustambayev. O'zbekiston Respublikasi. jinoyat huquqi iv tom maxsus qism Toshkent 306-bet